


# KONFERENSIYA

## "ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR"

@bestpublication| |Street: Alisher Navoiy

FARG'ONA 2021

**«BEST PUBLICATION»**

*Ilm-ma'rifat markazi*

# "ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI 10-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE KONFERENSIYASI

**MATERIALLARI TO'PLAMI**

**28-FEVRAL, 2021-YIL**

**10-SON**

# "DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE IDEAS FOR IT, REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL ON-LINE CONFERENCE ON "SUGGESTIONS AND SOLUTIONS"

**28 FEBRUARY 2021**

**PART-10**

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА ELIBRARY.RU

doi digital object identifier

Google Scholar

CYBERLENINKA

Ushbu to'plamda "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 10-sonli Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasiga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan.

Mazkurilmiy-amaliyon-linekonferensiyadazamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonidainnovatsionta'lim texnologiyalarini joriy etishvaloyihalashtirish,integratsionta'limnirivojlantirishda yo'nalishlarbo'yichakreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarniamalga oshirishmaqsad qilib olingan.Mazkur Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiya materiallaridan OTMprofessor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'limmaktabo'qituvchilari,mustaqiltadqiqotchilar,magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgantadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir**
*Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich*
**Mas'ul kotib**
*Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li*
*Marg'ilon shahar11-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*
**Nashrga tayyorlovchi**
*Qobilova Saidaxon Muahhamdjon qizi*
*Farg'ona davlat universiteti*

## Tahrir kengashi a'zolari

**Mo'minov Qobiljon Qodirovich**
*Fizika-matematika fanlari doktori professor*
**Sultonali Mannopov**
*O'zbekiston xalq artisti, professor*
**Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna**
*Pedagogikafanlari bo'yichafalsafa doktori*
**Nikadambayeva Hilola Batirovna**
*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
**Pirimov Akram Pirimovich**
*Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent*
**Shodiyev Furqat Davranovich**
*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari nomzodi, Dotsent*
**Qurbonova Muqaddas Omonovna**
*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
**Otaqulov Fozil Sobirovich**
*FarDU, bo'lim boshlig'i*
**Aslanov Xakimjon Ro'ziboyevich**
*FarDU, Harbiy ta'lim fakulteti Umumqo'shin tayyorgarligi sikli boshlig'i, podpolkovnik*
**Karimov O'lmasbek Umaraliyevich**
*FarDUo'qituvchisi*
**Xudoyberddiyev Elyor Xatamovich**
*O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, "Shuhrat" medali sohibi*
**Mamatqulov Muzaffar Odiljon o'g'li**
*O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i,*

## MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЫЕ


| | |
|---|---|
| **SO'Z BOSHI** | |
| **SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLARI** | |
| Ibragimov Sanjarbek Hoshim o'g'li,<br>Umarova Maftuna Farhodovna<br>**MILLIY HUNARMANDCHILIKNI O'RGATISHDA USTOZ VA SHOGIRD AN'ANALARI** | 9 |
| Abdiyazova Yulduz Rustamovna<br>Dosov Ikram Ro'zimboevich<br>**JISMONIYTARBIYAYO'LIBILANORGANIZMNI CHINIQTIRISHNING AHAMIYATI** | 13 |
| Обжигайло Лилия Рафиковна,<br>Усмонова Шоира Расулжон қизи<br>Мамадалиев Илхомжон Расулжанович<br>**СПОРТ СОҒЛОМЛАШТИРИШ ТАДБИРЛАРИДА, МАЬНАВИЙ АХЛОҚИЙТАРБИЯНИНГ ЎРНИ ( ЮҚОРИ СИНФЎҚУВЧИЛАРИ МИСОЛИДА)** | 16 |
| Turdiyev Radik Erkinovich<br>**"O'ZBEKISTONDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORTMUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING TARIXIY, IJTIMOIY VA PEDAGOGIK AHAMIYATI "** | 19 |
| Egamqulov Oybek Altmishevich<br>Egamqulova Dilrabo Abdul qizi<br>**UZEIR HOJIBEKOV VA UNING "OZARBAYJON XALQ MUSIQA ASOSLARI" KITOBI.** | 23 |
| Матякубова Мухайё Машариповна<br>Маткаримов Сардор Холмурадович<br>**ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИ- СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ ГАРОВИ** | 26 |
| Xasanova Saboxat Ilhom qizi,<br>Tursunov Habibullo Olim o`g`li<br>**AHOLI O'RTASIDA SOG'LOMLASHTIRISH VA OMMAVIY SPORT MUSOBAQALARI HAMDA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI** | 30 |
| **TARIX FANLARI** | |
| Yodgorova Oygul Erkinovna,<br>Yodgorova Gavhar Erkinovna<br>**ABU HAFS KABIR VA UNING ISLOM SIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSASI** | 34 |
| Jamoliddinova Saida Mahammadjanovna<br>Payziyeva Nurjahon Abdurahmanovna<br>**AMIR TEMUR HUKMRONLIGI DAVRIDA TA'LIM VA ADABIYOT** | 37 |
| Samarova Aziza<br>**ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'D SAVDO MANZILGOHLARI VA ULARNING BUYUK IPAK YO'LI TARIXIDA TUTGAN O'RNI** | 40 |
| Ne'matova Mushtariy<br>**ABU-L-HASAN AL-ASH'ARIY DAVRIDA BASRA HAMDA BAG'DODDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA ILMIY MUHIT (IX-X asrlar)** | 42 |
| Orziyeva Shahrinoza Qodirjon qizi<br>**O'ZBEKISTON TARIXI JAHON E'TIBORIDA YOHUD AJDODLAR O'TMISHIGA SAYOHAT** | 45 |
| Абдуллаев Шавкиддин<br>**АЛИ ҚОРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ УМУМИЙ ТАҲЛИЛИ** | 48 |
| Гафурова Нодира Равшановна<br>**ТОЛЕРАНТЛИК ТАФАККУРИНИНГ ЎҚУВЧИЛАР ТАФАККУРИДА ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАСИ ВА МУАММОЛАРИ** | 52 |
| **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR** | |
| Suyunova Nilufar Jasur qizi;<br>**TURIZM SOHASIDAGI XATO VA KAMCHILIKLAR: GASTRO TURIZM** | 54 |
| Abdukarimova Munavvar Sobir qizi<br>Normurodov Ravshanbek Xo'jamberdi o'g'li<br>**YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISH CHORA TADBIRLARI** | 58 |
| Sayidova Nigora Komildjonovna<br>MadolimovFahriddin Erkinaliyevich<br>**MA'LUMOTLARGA YO'NALTIRILGAN ELEKTRON HUKUMAT TIZIMI** | 61 |
| Qodirova Nozima Rasulovna<br>**CLUSTERING IS THE SMARTEST WAY TO WIN THE COMPETITION.** | 65 |
| Rahmonqulov Sodiq<br>**SAMARQAND SHAHRIDA TRANSPORT HARAKATINI ME'YORLASHTIRISH ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.** | 69 |
| Shermatov Farruxbek<br>**O'ZBEKISTONDA TURIZM** | 73 |
| Мустафоев Анвар Алишер ўғли,<br>**РЕЛИГИЯ И КИБЕРПРОСТРАНСТВО** | 77 |
| Бердиев У.Т<br>Асатов С.Н<br>Саматов Ш.А<br>**ЭЛЕКТРОВОЗЛАРНИ ТАЪМИРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ** | 79 |
| Muhitdinova Muxlisa Satriddinovna<br>**YOSHLAR TARBIYASI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN BIRIDIR** | 83 |
| Botirov Muzaffar Xodiyevich<br>**TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI.** | 86 |
| Zohida Soliyeva Zokir qizi<br>**HOW TO MAKE A SUCCESSFUL SPEECH: TIPS AND METHODS** | 89 |
| Уралов Рустам Абдураимович<br>**ҚАШҚАДАРЁ БОТАНИК ГЕОГРАФИК РАЙОНИ ФЛОРАСИДА ТАРҚАЛГАН HAPLOPHYLLUM ТУРКУМИ ТУРЛАРИ** | 92 |
| Kamalova Azimaxon Odiljon qizi | 95 |

| | |
|---|---|
| **MAKTAB O'QUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MUAMMOLI METODDAN FOYDALANISH** | |
| Normurodova Fayoza Boymurod qizi<br>**"O'LSANG KIM YIG'LAYDI"ASARI FALSAFIY-HAYOTIY YO'RIQNOMA** | 98 |
| Умарова Зилолахон Рўзибоевна<br>Режабалиева Саидахон Турдибековна<br>**МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МАКТАБГА ТАЙЁРЛАШДА ОТА-ОНАЛАРНИНГ ВАЗИФАЛАРИ** | 100 |
| Yusupova Dilnoza Fayzullayevna<br>**UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASI RAHBARLARINING HUQUQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SINERGETIK YONDASHUV** | 103 |
| Мирзаев Агзам Рустамович<br>**ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ** | 108 |
| Botirov Muzaffar Xodiyevich<br>**TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI.** | 112 |
| Muhiddinova Madina Sayidjon qizi<br>**ORGANIZM RIVOJLANISHIDA TASHQI MUHITNING O'RNI** | 115 |
| Davlatova Laylo Bahodir qizi<br>**THE ROLE OF A TEACHER IN TASK-BASED LANGUAGE TEACHING** | 117 |
| Х.Б. Тожиева<br>**ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИДА АРУЗ ИЛМИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ** | 119 |
| Kuanıshbaeva Sarıgúl Jangabay qizi<br>**T.QAYIPBERGENOVTIŃ "MAMAN BIY" ROMANINDAĞI TAŃLAQ SÓZLERDIŃ QOLLANILIWI** | 121 |
| Nuraliyeva Aydana Toqashovna<br>**K.SULTANOVTIŃ "ÁJINIYAZ" ROMANINDA NAQIL-MAQALLARDIŃ QOLLANILIWI** | 124 |
| Xojabaeva Altınay Da'wletbaevna<br>**M.NIZANOVTIŃ "AQSHAGÚL" SHIĞARMASINDA FRAZEOLOGIZMLERDIŃ QOLLANILIWI** | 126 |
| Мустафоев Достон Шухратович<br>**САЙЙИД ШАРИФ ЖУРЖОНИЙ – ҚОМУСИЙ ОЛИМ** | 128 |
| Normurodova Fayoza Boymurod qizi<br>**"O'LSANG KIM YIG'LAYDI" ASARI FALSAFIY-HAYOTIY YO'RIQNOMA.** | 131 |
| Turapova Marhabo Abdumajidovna<br>**SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA VATAN TUYG'USI IFODASI VA MAZMUN UYG'UNLIGI** | 134 |
| Абдурахмонов Ихтиёр Бахтиёрович<br>**АЛОУДДИН САМАРҚАНДИЙ "ШАРҲ АТ-ТАЪВИЛОТ" АСАРИНИНГ ТАФСИР ИЛМИДА ТУТГАН ЎРНИ** | 138 |
| Жўраев Шукрулло Рахимович<br>**ИСЛОМ ҲУҚУҚИДА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИДА МУҲАММАД ШАЙБОНИЙНИНГ ЎРНИ** | 143 |
| Karimova Nargiza Abdulhaqovna<br>Jumanov Anvar<br>**FIZIKA FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH** | 147 |
| Девятов А.В<br>Тургунбаев Э.К<br>**МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЦИРРОЗА ПЕЧЕНИ В СОВРЕМЕННОМ ЗДРАВООХРАНЕНИИ (обзор литературы)** | 150 |
| Kosnazarova Aygul Niyazimbetovna<br>**INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMPUTERLASHTIRILGAN TA'LIMNING AHAMIYATI** | 157 |
| Saparova Dilnoza Azimbayevna<br>**O'SMIRLARDA IRODANI SHAKLLANTIRISH VA IRODASIZLIKNI KORREKTSIYA QILISH USULLARI** | 160 |
| Turdiyeva Dilfuza Rajabovna<br>**TA'LIM JARAYONIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH** | 163 |
| Ахмедова Умида Мавлоновна<br>Бибитова Ойгул Қобиловна<br>**ШАХС МАЪНАВИЯТИ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ** | 166 |
| Худайберганова Зайнаб Юлдашевна.<br>**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ** | 169 |

# UZEIR HOJIBEKOV VA UNING "OZARBAYJON XALQ MUSIQA ASOSLARI" KITOBI.

**Egamqulov Oybek Altmishevich**
*Jizzax Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi*
**Egamqulova Dilrabo Abdul qizi**
*Jizzax Davlat Pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ozarbayjon musiqasining milliy lad nazariyasining asoschisi Uzeir Hojibekov hayoti va uning nomini ko'klarga ko'targan o'lmas asari "Ozarbayjon xalq musiqa asoslari" kitobining yaralishi, qismlar tahlili hamda xozirgi kunda ushbu kitobning talabalar orasida dolzarbligi ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zi:** *Uzeir Hojibekov, lad nazariyasi, Ozarbayjon xalq musiqa asoslari.*

*Ozarbayjon xalqining musiqa madaniyatidagi yutuqlari - o'ziga xos,chuqur realistik an'analarning shakllanishi va rivojlanishining ko'p asrlik tarixiy jarayoni natijasidir. XX asr boshlariga qadar bu urf-odatlar bir tomondan xalq og'zaki xarakterga ega bo'lgan, ikkinchi tomondan esa professional san'atning o'ziga xos xususiyatlariga, ayniqsa mugamat va ashuglar ijodiga ega bo'lgan.*

Ozarbayjonbastakori va musiqashunosiUzeirAbdulHusayno'g'liHojibekovning ilmiy merosida lad nazariya muommolarini o'rganish juda dolzarb va katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Umuman Ozarbayjon musiqa madaniyati kontekstida Uzeir Hojibekov ijodi og'zaki yozuvdan an'anaviy yozuvga, shuningdek professional bastakorlik san'atining shakllanishiga sabab bo'ldi. Uzeir Hojibekov ilmiy faoliyatiSharq va G'arb nazariy tafakkurining uyg'unlashuvidagi katta qadam edi. Uzeir Hojibekov XX asrda Ozarbayjon musiqasining milliy lad nazariyasining asoschisi bo'ldi.Uning "Ozarbayjon xalq musiqasining asoslari" fundamental ilmiy ishi(1945) paydo bo'lishi bilan Ozarbayjon musiqa fanida yangi sahifani ochib berdi. Uzeir Hojibekov o'z tadqiqotlarida Yevropa va Sharq musiqa nazariyasining umume'tirofetilgan qoidalari bilan bog'ladi va shu asosda o'zining lad nazariyasining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. U og'zaki urf-odatlarning folklor va professional musiqasininguyg'un naqshlarini aniqladi va bastakor ijodida ulardan foydalanish usullarini ko'rsatib berdi.

XX asrning eng buyuk Ozarbayjon musiqashunosi va bastakori bo'lgan Uzeir Hojibekov o'zining "Ozarbayjon xalq musiqa asososlari" ilmiy asarida Sharqning eng birinchi musiqashunoslarining ismlari, qadimdan mavjud bo'lgan milliy

musiqanining, mug'omlarning ahamiyatini sharhlab o'tgan.Ularning tarixiy ildizlarini, xususiyatlarini o'rganib chiqib, o'zining chuqur mulohazalarini ilgari surdi. Xalq ijodining namunalari bo'lganmug'omlar U.Hojibekovning ham musiqiy merosida, hamda maqola va nutqlarida asosiy o'rin tutadi. Hali talabalik yillaridayoqU.Hojibekov bir qancha mug'omlarni va xalq qo'shiqlarini notaga solgan. Kompozitor Uzeir Abdul Husayn o'g'li Hojibekov asarlari o'zining hayotiyligi, xalqchilligi, musiqiy vositalar ifodaviyligi bilan ajralib turadi. U hayoti davomida ko'plab asarlar yaratdi va bir qancha lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi.

Jumladan, Ozarbayjon xalq artisti (1938), konservatoriya (1938-48 yillar professor va direktori, 1949 yildan Hojibekov nomida), Ozarbayjon xalq cholg'u asboblari orkestri (1931), Ozarbayjon Davlat xori (1936) tashkilotchisi; 1945 yildan Ozarbayjon Fanlar Akademiyasining Ozarbayjon San'ati instituti direktori. Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan san'at xodimi (1935), SSSR xalq artisti (1938), Stalin mukofoti laureati (1941), Lenin ordeni laureati (1938) .

Uzeir Hojibekov o'zining uzoq yillik mehnat samarasi bo'lgan ilmiy asari haqida shunday yozadi: "Ozarbayjon xalq musiqa asoslarini o'rganish chog'idagi ishimning bir bastakor sifatida, men uchun amaliy ahamiyati shu bo'ldiki, men "Ko'ro'gli"(1936) operasini yozdim ". Ya'ni, tadqiqotlari natijasida buyuk bastakor operaning shoh asari bo'lgan "Ko'ro'g'li" ni yaratdi. Ammo "Ko'ro'g'li" asariga qadar U.Hojibekov6 opera "Layli va Majnun"(1907), "Sheyx Senan"(1909), "Rustam va Suhrob"(1910), "Shah Abbas va Xurshudbanu"(1912), "Asli va Karam"(1912), "Harun va Leyla"(1915) va 3 operetta- "Er va arvad"(1910), "O olmasin, bu olsun"(1910), "Arshin mol olon"(1913) kabi o'lmas asarlar bastalagan va bularning barchasiga xalq musiqasi asoslari bo'lgan mug'omlardan, xalq qo'shiqlaridan, tinglovchini zavqlantira oladigan orijinal musiqalarini kiritdi.

Uzeir Hojibekovning "Layli va Majnun"(1907) operasi mumtoz opera musiqasi va Ozarbayjon mug'ominingsintezi asosida yaratilgan birinchi opera. Operani yozishda muallifArazbari, Eyrat, Segah, Mansuriya, Chahargah, Sarenj, Rast, Shushter, Xarij-segah kabi mug'omlarning namunalarini ishlatgan va bu sinfonik mug'omning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Buyukbastakor Uzeir Hojibekovning"Ozarbayjonxalq musiqa asoslari" nomli asari Ozarbayjon musiqasi tarixida muhim manba hisoblanadi. Muallif ta'kidlaganidek, uning asari Ozarbayjon xalq musiqasining asosiy jihatlarini o'rganish uchun va Ozarbayjon ladlari asosida musiqa yozgan bastakorlarga ijodiy ko'magidir".

Oradan yillar o'tsa ham kitobning birinchi nashri hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Asar bu sohada faoliyat ko'rsatuvchi tadqiqotchi olimlar uchun qiymatli

ilmiy manba, yosh talaba musiqashunos va bastakorlar uchun esa zaruriy darslik vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Kitob birinchi marta 1945 yilda rus tilida nashr etilgan. Birinchi nashrning muharriri taniqli pianistva ma'rifatparvar Uzeir Xojibekovning eng qadrli va sevimli talabalaridan biri Kovkab xonim Safaraliyeva edi.1950- yilda U. Hojibekov vafotidan so'ng "Ozarbayjon xalq musiqa asoslari" ni ozarbayjon tiliga tarjima qilish va nashrga tayyorlash Uzeir Hojibekovning yana bir shogirdi, uning nazariya sohasidagi izdoshi Mammadsaleh Ismoilova va bastakor Soltan Hojibekovga ishonibtopshirildi. 1950, 1952, 1957 ,1965 va 1985- yillarda "Ozarbayjon xalq musiqa asoslari" qayta nashr etildi. 1985- yilda Uzeir Xojibekovning 100 yilligi nishonlanishi munosabati bilan "Ozarbayjon xalq musiqa asoslari" ozarbayjon, rus va ingliztillarida nashr etildi.

Bastakor o'ziningushbu asarida milliy musiqaning yetti asosiy turi "Rast","Shur", "Segah", "Shushter", "Chahargah", "Bayati-Shiraz" va "Humayun"ularning har biri haqida batafsil ma'lumot berib o'tadi. Uzeir Hojibekov milliy mug'omlarini klassik tahlil qilish orqali Ozarbayjonda eng ko'p tarqalgan mug'omlar "Shur" va "Segah" ekanligini ta'kidlaydi. Ozarbayjon xalq qo'shiqlari, raqslari musiqiy shaklining aksariyati ikki hil ladda tuziladi. "Rast", "Chahargah" va "Bayati-Shiraz" eng ko'p tarqalganlardan biridir. Hamasidan kam rivojlangani "Humoyun". Buyuk olim ushbu mug'omlarning xarakterini(tabiatini) va kuchini mohirona his qilib, ularning ta'sirini ochib bergan.

Bu borada u shunday tarif beradi: Badiiy-hissiy ta'sir jihatidan "Rast" tinglovchida mardlik hissi, "Shur"- quvnoq, lirik kayfiyat, "Segah" – muhabbat hissi, "Shushter" – chuqur qayg'u, "Chahargah" – hayajon va ehtiros, "Bayati-Shiraz" – g'amginlik, "Humoyun" esa "Shushter"ga qaraganda chuqur qayg'u tuyg'usini uyg'otadi.

Ushbu asosiy ladlardan boshqa yana keng tarqalmagan 70 dan ortiq qo'shimcha ladlar va lad sho'balari mavjud va bularga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:"Shahnaz", "Sarenj", "Bayati-kurd", "Hijaz", "Gatar" va boshqalar.

## FOYDALANILGANADABIYOTLAR:


1. O.Matyoqubov. Maqomot. "Musiqa" nashriyoti, Toshkent, 1992.
2. Р.Ю.Юнусов. Макомы и Мугамы. Издательство "Фан", Тошкент, 1992.

Макомы, мугамы и современное композиторские творчество. ИЛИ им Г.Гуляма, Ташкент, 1978.

3. "Maqom san'ati va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Shahrisabz, 6-7 sentyabr, 2018 yil. Toshkent, 2018 yil.
4. Egamqulov, O. (2020). УДАРНАЯ УСТАНОВКА: ЭВОЛЮЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ( VIII – ЧАСТЬ ). Архив Научных Публикаций JSPI, 1(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7331
5. Egamqulov, O. (2020). ЭСТРАДНО-ДЖАЗОВЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ И МЕТОДЫ ИХ ИЗУЧЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(83). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7233
6. Egamqulov, O. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ДЖАЗОВОГО СТИЛЯ «БИБОП» В МУЗЫКАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(83). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7248
7. Egamqulov, O. (2020). УДАРНАЯ УСТАНОВКА: ЭВОЛЮЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ( I – ЧАСТЬ ). Архив Научных Публикаций JSPI, 1(82). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7264

**Konferensiyaning maqsadi:**

*Professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag'batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda*

*5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.*

**BOSH MUHARRIR:**

**Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich**

**MAS'UL KOTIB:**

**Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li**
*Marg'ilon shahar 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
*Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

**NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:**

**Xakimova Aziza Xaydaraliyevna**
*Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o'g'li**
*Farg'ona davlat universiteti*

**"Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 10-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to'plami, 28-FEVRAL, 2021-yil. – Farg'ona shahri: Bestpublication, 2021. – 173 b.**